



**O‘ZBEK TILIDAGI ARXAIZMLAR VA ULARNING ZAMONAVIY
LEKSIK TIZIMDAGI O‘RNI**

Sog‘inboyeva Shahzoda

Namangan davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilida arxaizmlarning paydo bo‘lish sabablari, ularning tarixiy shakllanish jarayoni hamda zamonaviy davrda qayta tiklanish holatlari tahlil qilingan. Asarda sobiq sho‘rolar davridagi til siyosati natijasida ko‘plab tub va o‘zlashma so‘zlarning faol ishlatilishdan chiqib ketgani, mustaqillik yillarida esa bu leksik birliklarning qayta jonlanish jarayoni yoritilgan. Shuningdek, maqolada Sh. Rahmatullayev tomonidan tuzilgan “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” misolida o‘zbek leksikografiyasida etimologik tadqiqotlarning ahamiyati va lug‘at tuzish prinsiplari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Arxaizmlar, o‘zbek tili, leksikografiya, etimologik lug‘at, mustaqillik, o‘zlashma so‘zlar, tarixiy taraqqiyot, leksik tizim.

**ARCHAISMS IN THE UZBEK LANGUAGE AND THEIR PLACE IN
THE MODERN LEXICAL SYSTEM**

Sog‘inboyeva Shahzoda

Student of Namangan State University

Abstract: This article analyzes the causes of the emergence of archaisms in the Uzbek language, their historical development, and the cases of their revival in the modern era. It highlights how, during the Soviet period, many native and borrowed words fell out of active use due to language policy, while in the years of independence these lexical units have been revived and reintroduced into linguistic practice. Furthermore, the article discusses the significance of etymological research in Uzbek lexicography, using Sh. Rahmatullayev’s “Etymological Dictionary of the Uzbek Language” as an example to illustrate the principles and importance of dictionary compilation in tracing the historical roots of words.

Keywords: Archaisms, Uzbek language, lexicography, etymological dictionary, independence, borrowed words, historical development, lexical system.

Arxaizmlar ostida o‘tmishda faol qo‘llangan, biroq vaqt-zamon o‘tishi bilan ishlatilish chastotasi o‘ta susaygan yoxud o‘rnini tub yoki o‘zlashmalarga bo‘shatib berishga majbur bo‘lgan leksik birliklar nazarda tutiladi. Arxaizmlar o‘zbek tili so‘z boyligining shakllanish va rivojlanishining bizga ma‘lum barcha davrlarida mavjud bo‘lgan. Sobiq sho‘rolar xukmronligi davrida o‘zbek tili leksikasida qadimdan faol qo‘llanib kelgan ko‘pdan-ko‘p so‘zlar tub hamda arab va fors-tojik tilidan turli omillar oqibatida o‘zlashgan so‘z va iboralar ruscha yoki rus tili orqali G‘arbiy Yevropa



FRANCE

tilaridan kirib kelgan leksik birliklar bilan almashtirilgan edi. Buning natijasida, eski turkiy til va eski o'zbek adabiy tilida ishlatilgan minglab so'zlar, terminlar eskirgan, ya'ni arxaizmlar sirasiga kirib qolgan edi. O'zbek tilining 1980-yilda Moskvada nashr qilingan ikki tomdan iborat izohli lug'atida talaygina so'zlarga eskirgan belgisi qo'yilgani ma'lum.

O'zbekiston 1991-yilda o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, respublika rahbariyati va hukumati oldida yuqoridagi nohaklikka barham berish, moziyda ajdodlar tilida keng ko'lamda ishlatilgan so'z va terminlarga qayta jon ato etib, ularga til so'z boylidan munosib o'rin berish, ya'ni eskirgan tamg'asi bosilgan leksik birliklarni ruscha va u orqali tilimizga zo'rma-zo'raki olib kirilgan g'arbiy yevropacha so'z va istilohlar o'rnida qo'llash borasida jiddiy harakatlar amalga oshirildi. Buning natijasi o'laroq o'zbek tilining leksik tarkibi, xususan, terminlar tizimida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan ushbu xodisa oqibatida ko'pdan-ko'p eskirgan so'zlar qaytadan muomalaga olib kirildi, va aksincha, totalitar tuzum va kommunizm qurish g'oyasi, mafkurasi bilan bog'liq tushunchalar insonlar turmush tarzidan chiqib ketgach, ularni ifodalovchi ko'pgina so'z va terminlarni ishlatishga ortiqcha hojat qolmadi. Chunonchi, *demokratik sentralizm, sotsializm, tarixiy materializm, ilmiy kommunizm* kabi termin va birikmalar tarix saxifasidan o'rin oldi. Aksincha, tom ma'nodagi erkin va ozod davlat barpo etish mafkurasi ostida o'z yo'lini tanlab olgan o'zbek xalqi turmush tarzida paydo bo'lgan mutlaqo yangi tushunchalar va eski so'zlar qatoriga kiritilgan leksemalar yordamida ifodalandi. Bunday holat ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminlar tizimida ravshan ko'zga tashlandi. Davlat boshqaruv strukturasining ijrochi, qonun chiqaruvchi va nazorat qiluvchi organlariga taqsimlanishi shu sohalarga oid terminlar tizimining sof o'zbekcha yoki arabcha va forsa-tojikcha so'zlar hisobiga kengayishiga olib keldi. O'zbek tili ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimidan *vazir, bosh vazir, vazirlik, viloyat, tuman, hokim, viloyat hokimi, tuman hokimi, hokimlik yoki hokimiyat, oqsoqol, qishloq oqsoqoli* singari arxaizmlar mustahkam o'rin oldi. *Jarayon, ma'ruza, mavzu, hujum, hamla, ilg'or, soqchi, malham, shifokor, bosh shifokor, saraton, hay'at, bo'ron, yorliq, taftish* singari turfa sohalarga oid terminlar bugungi kunda millat vakillari tilida faol ishlatilmoqda. Xullas, istiqlof tufayli anchagina eskirgan so'z va istilohlar o'zbek tili lug'at tarkibidan qayta o'rin egalladi va ular millat vakillarining kundalik muloqoti uchun zarur vazifani bajarishga xizmat qilmoqda. Avvalgi mavzulardan birida etimologik va ensiklopedik lug'atlar tuzish borasida o'zbek leksikografiyasi qo'lga kiritgan yutuqlarni tilga olgan edik. Ensiklopedik lug'atlar tuzish bo'yicha qilingan ishlar o'zbek tilining etimologik lug'atini yaratishga nisbatan ancha ilgarilab ketganligi ayni haqiqat. Bu borada shubhaga o'rin yo'q. Bunday holatning o'ziga xos obyektiv va sub'ektiv sabablari mavjud. Modomiki, o'zbek tili etimologik lug'atlarining tuzilish prinsiplari xususida fikr yuritilar ekan, biz, albatta, hozircha o'zbek tilida yaratilgan yagona etimologik lug'at, ya'ni Sh.Rahmatullayev tomonidan tuzilgan "O'zbek tilining

FRANCE

etimologik lug‘ati”ga murojaat qilamiz. Lug‘at maqolalari talqin qilinayotgan so‘z bilan yoki havola so‘z bilan boshlanadi va ular qat’iy alifbo tartibida joylanib, bosh harflar bilan terilgan. Talqin qilinayotgan so‘z va havola so‘z amaldagi o‘zbek kirill alifbosida yozilgan, ye, yo, yu, ya harflari o‘rniga ikki tovushni ifodalashiga ko‘ra ikki harf yozilgan; aksincha, bir tovushni ifodalashiga ko‘ra ng harf tizmasi o‘rniga n harfi berilgan: oyoq, uyalchan, son kabi. Lug‘at maqolasida talqin qilinayotgan so‘zlarni va ularning qismlarini yozishda kirill alifbosidan turkiy lug‘atshunoslik an‘analariga ko‘ra quyidagicha foydalanilgan:

- 1) A harfi bilan qadimgi turkiy tildagi biroz keng unli tovush ifodalangan: bayram va h.k;
- 2) Y harfi bilan oldingi qator unli tovush ifodalangan: ayron va x.k;
- 3) O’ harfi bilan ortki qator o‘rta keng unli tovush ifodalangan: bo‘yin va h.k.

Bosh so‘z fe‘l bo‘lgan taqdirda, turkiy tillar lug‘atlarida mavjud an‘anaga binoan ketiga chizik (-) qo‘yilgan: bela-, bura- va h.k. Agar talqin qilinayotgan so‘z ko‘p ma’noli bo‘lsa, asosan bosh ma’nosi, zarur o‘rinlarda ikki ma’nosi berilgan. Ma’no tariflari O‘zbek tilining izohli lug‘atiga suyanan holda keltirilgan. Ma’no ta’rifidan keyin ayni shu ma’noni tasdiqlovchi jumla keltiriladi. Bu jumla kursiv bilan yozilib, uning tarkibidagi so‘z misol yozib terilgan. Shunday keyin etimologik talqin boshlanadi. Talqin qilinayotgan so‘z hozirgi o‘zbek tilida ham, qadimgi turkiy tilda ham tub bo‘lsa, bunday so‘z birinchi navbatda tovush tarkibi jihatidan yuz bergan o‘zgarishlar ko‘rsatilgan. Etimologik talqini berilayotgan so‘z ma’no jihatidan o‘zgargan bo‘lsa, bunday ma’no taraqqiyoti qanday ma’no asosida ro‘y bergani izohlangan. Yasama so‘zlar talqin qilingan maqolalarda yasash qanday ma’nodan amalga oshirilgani ko‘rsatilgan. Etimologik talqin berilayotgan so‘zlar doirasidagi omonimlar rim raqamlari qo‘yib farqlangan. Qo‘shimcha yordamida yasalgan so‘zdan keyin “yasalgan”, grammatik shakl yuzaga kelsa “hosil qilingan” so‘zlari ishlatilgan. Asos bilan qo‘shimcha orasiga barobar(=) alomati qo‘yilgan. so‘z qismlari orasidagi munosabatni ko‘rsatishda qavslardan istifoda etilgan. Tovush jihatidan o‘zgargan so‘zlarning oldingi va keyingi shakllari o‘tish belgisi (>) yordamida berilgan. Izohlanayotgan so‘z, asos va qo‘shimchalar qora kichik harflarda keltirilgan. Etimologik lug‘at xususidagi fikrlarni undan keltirilgan quyidagi namuna bilan yakunlaymiz : ARIQ “kichik oqin suv yo‘li”. Bahorda bu ariqlarga suv sig‘may ketadi. Bu ot asl qadimgi turkiy tildagi “oq-“ ma’nosini anglatgan ar- fe‘lidan -(i)k qo‘shimchasi bilan yasalgan; keyinroq a: unlisining cho‘ziqlik belgisi yo‘qolgan; i unlisining qattiqlik belgisi yo‘qolgan. Xulosa qilib aytganda, arxaizmlar o‘zbek tilining boy leksik merosini tashkil etadi. Ular millat tarixini, madaniyatini va tafakkur tarzini o‘zida aks ettiradi. Sho‘rolar davrida bu so‘zlarning ko‘pchiligi ruscha va g‘arbiy yevropacha atamalar bilan almashgan bo‘lsa-da, mustaqillik yillarida ular yana jonlana boshladi. Til siyosatining milliy tamoyillarga



FRANCE

asoslanishi natijasida arxaik soʻzlar hozirgi oʻzbek tilida faol qoʻllanmoqda va ularning aksariyati ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy sohalarda oʻz oʻrnini topmoqda. Sh. Rahmatullayevning “Oʻzbek tilining etimologik lugʻati” bu jarayonda muhim ilmiy manba boʻlib xizmat qilmoqda. Demak, arxaizmlarni oʻrganish va ularni zamonaviy leksik tizimda toʻgʻri baholash oʻzbek tili rivojining uzviy davomi sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Турсунов У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982.
2. Умаров Э. Янги аниқланган Навоий луғати // Ўзбек тили ва адабиёти, 2009.
3. Мухаммад Якуб Чинги. Келурнома. – Ташкент: Фан, 1982.
4. Самойлович А.Н. Персидский турколог XVIII в Мехдихан // Известия общества обследования и изучения Азербайджана. – Баку, 1927.
5. Умаров З.А. Грамматика староузбекского языка «Мабани ул-луғат» Мира Мухамедхана. Автореф. канд. дисс. – Ташкент, 1967.
6. Мухиддинова К. «Санглах» Мирзы Мухаммеда Мехдихана. Автореф. канд. дисс. – Ташкент, 1971.
7. Акмалова М. Лексикографические труды в собрании института востоковедения АН УЗ // Адабий мерос, 3 (57), 1991.
8. Ҳусанов Н. Бир ноёб луғат ва унинг муаллифи // Фан ва турмуш, 1982.
9. Мадвалиев А. Ўзбек лексикографияси тарихидан// Ўзбек тили ва адабиёти, 2008.
10. Хасанов Б. Рукописные словари к произведениям Навои. Луғат-и атракийя. - Адабий мерос, 1 (55), 1991.
11. Шорахмедова Н. Словарь “Хамса ба халли луғат” // Адабий мерос, 2(44), 1988.
12. Вандриес Ж. Язык. – М., 1937.